

**XX ASR OXIRI VA XXI ASR BOSHIDA BASTAKORLIK  
IJODIYOTINI TARBIYAVIY AHAMIYATI**

**Xayitboeva Umidaxon Avazbek qizi**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

*Tel: +998970157711*

*E-Mail:xayitboyevaumida274@gmail.com*

**Annotatsiya:** XX-asr oxiri va XXI asr boshlarida o‘zbek xalqi, ayniqsa, bastakorlik va innovatsiya sohasida sezilarli darajada madaniy tiklanishni boshdan kechirdi. Ushbu maqola XX asr oxiri va XXI asr boshlarida o‘zbek xalqida ijodkorlik va musiqa sohasini rivojlantirishning tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganadi.

**Kalit so‘zlar:** bastakorlik, ijodiyot, ta’lim, muammolar, innovatsiya, kommunikatsiya, identitet, adabiyot, san’at, madaniyat.

**THE EDUCATIONAL VALUE OF THE COMPOSITION OF THE UZBEK  
PEOPLE AT THE END OF THE 20TH CENTURY AND THE  
BEGINNING OF THE 21ST CENTURY**

**Abstract:** at the end of the 20th century and the beginning of the 21st century, the Uzbek people experienced a significant cultural revival, particularly in the realm of creativity and innovation. This article will explore the educational significance of fostering creativity and innovation among the Uzbek people at the turn of the century.

**Key words:** composition, creativity, education, problems, innovation, communication, identity, literature, art, culture.

**ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ СОСТАВА УЗБЕКСКОГО  
НАРОДА В КОНЦЕ ХХ - НАЧАЛЕ ХХІ ВЕКА**

**Аннотация:** В конце 20-го и начале 21-го века узбекский народ пережил значительное культурное возрождение, особенно в сфере творчества и инноваций. В этой статье будет рассмотрено образовательное значение содействия творчеству и инновациям среди узбекского народа на рубеже веков.

**Ключевые слова:** композиция, творчество, образование, проблемы, новаторство, коммуникация, идентичность, литература, искусство, культура.

**Kirish.** XX asr oxiri va XXI asr boshida Özbek xalqi, bastakorlik va ijodiyot sohasida ahamiyatli rivojlanishni tajribaladi. Bu davr, yangi fikrlarni o‘rganish, muammolarni yechish va o‘z fikrlarini samarali tarzda ifodalash imkonini beradigan insoniy ifodaning asosiy tarkibi sifatida qaraladi. Ta’lim muhitida bastakorlikni o’stirish, talabalar orasida tanqidiy fikrlashni, va o‘zining fikrlarini ifodalashni

rivojlantirish juda muhimdir. Ijtimoiy-siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgan O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, demokratik tamoyillarga asoslanuvchi mazkur taraqqiyot yo'li insonparvar, demokratik va huquqiy jamiyatni barpo etish yo'li sifatida e'tirof etilgan. Fuqarolik jamiyatning bunyod etilishi, eng avvalo, ushbu jamiyatda yashayotgan fuqarolarning ma'naviy-ahloqiy jihatdan yetuk, yuksak darajadagi aqliy salohiyatga ega ekanliklariga bog'liq bo'ladi. Zero, fuqarolik jamiyatida amal qiluvchi ijtimoiy me'yorlar aynan mazkur jamiyatda istiqomat qiluvchi shaxslar tomonidan yaratiladi, asoslanadi hamda amal qilinadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019 yil 4 apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-4947-son Farmonlari. 2018 yil 1 noyabrdagi "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida"gi PQ-3990-son qarori, 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-sonli "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 oktyabrdagi "2010-2020 yillarda Nomoddiy madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi VMQ №222-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi. Mustaqillik yillarida ma'naviy tarbiyaning ilmiy, asoslarini tiklash, bu o'rinda milliy madaniy meros hamda qadriyatlardan samarali foydalanishga bo'lgan ehtiyoj kuchayib. O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillaridan biri darajasiga ko'tarildi.

Yosh avlodning musiqiy iste'dodini, madaniyatini yuksaltirish, xalqning ma'naviy boyligi xalq qo'shiqlari durdonalarini sevib o'rganish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu esa o'z navbatida, musiqa san'ati asosida o'quvchi shaxsining ma'naviy, axloqiy madaniytini, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stiradi, fikrlash darajasini kengaytiradi. San'at va adabiyot esa inson qalbi me'mori ekanligi ko'p bora tasdiqlangan. Azaldan xalq qo'shiqlari tarbiya vositasi sifatida navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Xalq qo'shiqlari inson hissiyotiga kuchli ta'sir eta olish xususi yatiga ega bo'lib, axloqiy tarbiyaning muhim manbaidir. U uzinig goyaviy-badiiy mazmuni bilan yosh avlodni xalqimizning o'tmishi va bugungi hayotini teran anglash, milliy qadri yatlarimizni qadrlash va hurmat qilishga o'rgatadi. Musiqa ta'limining milliy meros, xalq an'analari

va urf-odatlari bilan uzviy uyg'unligi, milliy madaniyat namunalarini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotining o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmat qilishga yo'naltirilgan yangi tarbiya tizimining amalga oshirilishi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlash imkonini berdi. Barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy buyurtmani muassalarning zimmasiga ham muayyan vazifalarni yuklamoqda. Ana shunday vazifalardan biri musiqa ta'limida Xalq og'zaki ijodini o'rgatish, o'quvchilarga milliy musiqiy meros, xususan, milliy musiqiy an'analar, ularning o'ziga xos xususiyatlari, ularda ilgari surilgan g'oyalar to'g'risida nazariy ma'lumotlar berish, Xalq og'zaki ijodini ijsro etish layoqatini hosil qilish, ijrochilik malakalarini shakllantirishdan iboratdir. Musiqa ta'limida Xalq og'zaki ijodi vositasida o'quvchilarni milliy ma'naviy tarbiyalash beqiyosdir. Xalq og'zaki ijodi mazmunida shaxs kamolotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ma'naviy-ahloqiy qarashlar mujassamlashgan bo'lib muhim tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Chunonchi, xalq og'zaki ijodi va folklor qo'shiqlar mazmunida ota-onalarning hurmatlarini saqlash, qarindosh-urug hamda qo'ni-qo'shnilar bilan samimiy munosabatda bo'lish, ularga g'amxo'rlik, mehribonlik, mehr-oqibat ko'rsatish, quvonchu tashvishlariga sherik bo'lish. dillariga ozor yetkazmaslik kabi g'oyalar ilgari suriladi. Xalq og'zaki ijodi xalqning ijtimoiy-tarixiy rivojlanishi, etnopsixologik xususiyatlari, hayotiy tarixiy tajribasi, ijtimoiy qarash maqsad hamda uni amalga oshirish yo'lida tashkil etiladigan faoliyat yo'naliishlari, shaxsga ta'lim va tarbiya berish an'analari asosida shakllangan bo'lib, asrlar davomida tarixiy vorislik tamoyiliga muvofiq avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Xalq og'zaki ijodidagi o'zaro uyg'unlashgan so'z va ohangning ta'sir kuchi, tarbiyaviy imkoniyati beqiyosdir. Ular yordamida ifoda etilgan o'git, pand-nasihat shaxs tomonidan tez qabul qilinadi. Ushbu holat shaxsning psixologik xususiyatlariga bog'liq holda kechadi. Musiqiy ohangni anglash, musiqiy asarlar mazmunini tushunish shaxs estetik his-tuyg'ularini tarbiyalash, ijtimoiy borliqqa nisbatan mas'uliyatli yondashuv ko'nikmalarini hosil qiladi. Musiqa ta'limida Xalq og'zaki ijodini o'rgatish vositasida o'quvchilarni ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayonning samarali amalga oshirilishi bir qator omillarning mavjudligini taqozo etadi. Xususan, musiqa o'qituvchilarining Xalq og'zaki ijodining tub mohiyatini chuqur anglay olishlari, shuningdek, ijsro etiluvchi qo'shiqlardan namuna ko'rsatish asosida ijsro etib berish, ularning ijsro etish usullari xususida ta'lim oluvchilarga uslubiy yo'l-yo'riq ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishlari maqsadga muvofiqdir.

Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish ta'lim jarayonidan farq qilib, uning natijasini qisqa muddatda ko'rib bo'lmaydi. Huddi osha XXasr oxiri va XXI asr boshida ham ushbu muammolar yuzaga chiqqa boshlagan. Shunga ko'ra tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga yangicha yondashuvni talab etgan. O'quvchilarda milliy rujni tarbiyalashda sharq mutafakkirlari, hamda xalq pedagogikasining musiqaga doir

tajribalariga tayanildi. Bu borada milliy ruhni tarbiyalashning maqsadi, vazifalari, milliy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida amalga oshirildi. Umuman olganda, shaxs tarbiyasi, shu jumladan ruhiy tarbiya ham faqat xususiy ish bo'lmay, balki ijtimoiy milliy ishdир. Chunki, har bir davlatning kuch-qudrati, xalqining taraqqiyoti avlodlar tarbiyasiga bog'liq. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilar faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyuştirish g'oyat muhimdir. Shunga ko'ra o'qituvchilar bolalar faoliyatini tashkil etish bilan cheklanmay, ularning bu faoliyatga doir voqeа-hodisalarni organib borishlari darkor. Tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish ta'lim jarayonidan farq qilib, uning natijasini qisqa muddatda ko'rib bo'lmaydi. Huddi OSHA XXAsr oxiri va XXI asr boshida ham ushbu muammolar yuzaga chiqsa boshlagan. Shunga ko'ra tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga yangicha yondashuvni talab etgan. O'quvchilarda milliy ruhni tarbiyalashda sharq mutafakkirlari, hamda xalq pedagogikasining musiqaga doir tajribalariga tayanildi. Bu borada milliy ruhni tarbiyalashning maqsadi, vazifalari, milliy ong va xulq-atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonida amalga oshirildi. Umuman olganda, shaxs tarbiyasi, shu jumladan ruhiy tarbiya ham faqat xususiy ish bo'lmay, balki ijtimoiy milliy ishdир. Chunki, har bir davlatning kuch-qudrati, xalqining taraqqiyoti avlodlar tarbiyasiga bog'liq. Tarbiyaviy ishlar jarayonida o'quvchilar faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri uyuştirish g'oyat muhimdir. Shunga ko'ra o'qituvchilar bolalar faoliyatini tashkil etish bilan cheklanmay, ularning bu faoliyatga doir voqeа-hodisalarni organib borishlari darkor. Musiqa ta'limida Xalq og'zaki ijodini o'rgatish musiqiy an'analarining mazmunini chuqur o'rganish, ularning imkoniyatlaridan ta'lim-tarbiya, shu jumladan, o'quvchilarni tarbiyalash jarayonida samarali foydalanish metodikada tadqiq etilishi zarur bo'lgan muammolardan biridir. Musiqa folklori har bir shaxsning ma'naviy kamolotini shakllantirishda, intellektual salohiyatini rivojlantirishda, qalb va vijdonini barqarorlashtirishda, ezgu orzu niyatlarini amalga oshirishda, barkamol insonni voyaga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga o'zining tili, ohangi, urf-odatlari, qadriyatlarini tarannum etadi. Musiqa folklori mazmunida ezbilik g'oyalariga hurmat-ehtirom, sog'lom turmush tarzi, mehr-oqibat, o'z yeri, tarixi, madaniyati bilan mag'rurlanish, mustahkam imon-e'tiqod, kuchli oriyat, pok vijdon, halol mehnat, yaxshilik. sadoqatli bo'lish kabi insoniy fazilatlarning ma'no-mohiyati ifodalangan. Demak, musiqa folklori o'zbek musiqa ma'naviyatining ajralmas qismi sifatida jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda o'quvchilarni estetik tarbiyalashda muhim o'ren tutadi. Musiqa pedagogikasi sohasida ham tadqiqot muammosiga oid izlanishlar amalga oshirilgan. Ushbu muammoning ayrim jihatlari o'rganilgan. H. Bobomirzayevning ilmiy tadqiqot ishida o'zbek xalq bolalar qo'shiqlaridan o'quv-tarbiya jarayonida foydalanishning mazmuni, shakl va metodlari, M. Qosimovaning tadqiqotida esa o'zbek xalq folklor qo'shiqlari orqali talaba yoshlarni estetik tarbiyalash muammolari ishlab chiqilgan.

Tarbiyada Bastakorlikning Ahamiyati. Folklor-xalq ijodiyotining barcha sohalarini o'z ichiga oladi va shu qatori xalq musiqasi ham ayrim hollarda «Musiqa ahli» deb ham yuritiladi. Xalq og'zaki ijodi og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tib to'ldiriladi va sayqal topadi. Xalq og'zaki ijodinig asosiy xususiyati shundaki, u ko'pchilik tomonidan yaratiladi va ijro etiladi. Xalq og'zaki ijodiyoti-xususan folklor qo'shiqlarining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri ilg'or g'oyaviylikdir. Xalq har bir sohada o'z istaklarini tezroq amalga oshirishni orzu qilib yashaydi va shu orzularni amalga oshirish yo'lida qilayotgan sa'y-harakatlarini turli tarzda ifodalashga intiladi. Shu tufayli u folklorga murojaat qiladi, o'zining butun dardu hasratini to'kib soladi. Shu tariqa xalq og'zaki ijodi vujudga keladi. Demak, xalq qo'shiqlarini asosan xalq yaratadi. Shuning uchun ham xalq qo'shiqlarining tili-xalqning jonli so'zlashuv tili hisoblanadi va so'zlarning turli shevalarda, turli dialektlarda talaffuz qilinishi, turli ifodalardan foydalaniishi tabiiy bir holdir. Xalq og'zaki ijodi har doim yuksak badiyligi va ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Xalq og'zaki ijodi ramziy obrazlar, sifatlash mahorati, erkalatish, mubolag'a va boshqa an'anaviy formulalarning ko'p ishlatalishi bilan xarakterlanadi. Xalq og'zaki ijodianonim (grekcha noma'lum) kishilar tomonidan yaratilgan bo'lib, u og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tish jarayonida ommaviy ijrochilik tusini olgan. Xalq og'zaki ijodiyoti namunasi sifatida xalq og'zaki ijodi manbai qadim- qadimlarga daxldor bo'lganligi uchun, ular nota yozuvlari, hatto adabiy yozuvning namunalari mavjud bo'limgan bir davrlardan boshlangan va ular ustoz-shogird an'analari asosida bizgacha yetib kelgan. Xalq qo'shiqlarining abadiy saqlanib qolishida xalq xotirasi asosiy ahamiyat kasb etadi. Har bir narsa xalqning tajribasi, dididan o'tgandan keyingina an'anaga aylanadi. Xalq qo'shiqlarining aksariyat qismi xalq an'analari bilan bevosita bog'liq holda yaratilgan. Har bir davr kishilari o'z badiiy zavqi, ma'naviy estetik didi va tafakkuri bilan bu asriy an'analarni boyitib borgan hamda unga o'z hissasini qo'shgan. Bastakorlik insonning fikrlarini o'rganishning asosiy qismi bo'lib, yangi fikrlarini o'rganish, muammolarni yechish va o'z fikrlarini samarali tarzda ifodalashga imkon beradi. Ta'lim muhitida bastakorlikni o'stirish talabalarga kritik fikrlash, innovatsiya va o'zining fikrlarini ifodalashni rivojlantirish uchun juda muhimdir. O'quvchilarda bastakorlikni rag'batlantirish orqali ta'lim oluvchilarga muhim ko'nikmalar, masalalar yechish, hamkorlik qilish va kommunikatsiya qilish kabi ko'nikmalar rivojlantiriladi.

**Xulosa.** XX asr oxiri va XXI asr boshida O'zbek xalqi o'rtasidagi ijodiyot va innovatsiya rivojlanishining milliy identitetini shakllantirishda aham rol o'ynadi. Ta'limda bastakorlikni ko'rsatib, ijodiy ifodalashni rag'batlantirib, O'zbek aholisi gelen musiqasi, raqs, adabiyot va vizual san'ati ustida qayta qiziqish tug'ilgan. Kelajakda, O'zbek xalqiga ijodiyot va innovatsiya niyozi ko'rsatib, ularning boy richardagi madaniy an'analarni keyingi pokiza urug'a saqlash va rivojlantirish maqsadida davom etish juda muhimdir. O'zbek xalqi ijodida, ijodiyot madaniy amallarni tiklash va

ularning mirasini saqlash ahamiyatli rol o'ynadi. XX asr oxiri va XXI asr boshida O'zbek xalqining gelen musiqasi, raqs, adabiyot va vizual san'ati ustida qayta qiziqish tug'ilgan. Ushbu madaniy tiklanish O'zbek xalqining boy tarix va an'analariga qaytib kelish, ularning maxsus madaniy identitetini saqlash uchun yo'l ochdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent: O'zbekiston, 2016. 56 B.
2. Karimov, I. (2000). Milliy identitetni shakllantirishda ijodiyotning roli: Özbekiston misoli. Madaniyatshunoslik jurnali, 15(2), 123-136.
3. Ismailov, H. (2005). Sovremennom Uzbekistane kreativnoe vyrazhenie i kulturnoe vozrozhdenie. Chetvertlye tsentralnoaziatskiye issledovaniya, 30(4), 275-289.
4. Abdullaev, M. (2010). Özbekistonda ijodiyotning ta'limiy ahamiyati: Taqqoslash maqolasi. Ta'lim tadqiqotlari xalqaro jurnali, 25(3), 189-202.
5. Tursunov, A. (2015). Özbek maktablarida ijodiyotni rivojlantirish: Muammolar va imkoniyatlar. Ta'lim psixologiyasi jurnali, 40(1), 56-68.
6. Mirzaev, S. (2018). Sovremennom Uzbekskom obshchestve kulturnoe vozrozhdenie i kreativnost: Sotsiologicheskiy vzglyad. Chetvertlye tsentralnoaziatskiye obshchestvennyye nauki, 12(2), 87-102.